

XITOIY TILIDA LEKSIK SINONIMLARNING BA'ZI XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7355204>

TO'LQINOV E'zozbek

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to lexical synonyms and their classification in Chinese modern.

Xitoy tili leksik sinonimlariga har xil va bir xil tovush birligiga ega, semantik jihatdan o'xshash va yaqin so'zlar kiradi. Misol tariqasida quyidagi sinonimik juftliklarni keltirish mumkin: 十足 shizu – to'liq, absolyut va 实足 shizu – to'liq, 苦功 kugong – qiyin, og'ir ish va 苦工 kugong – katta mehnat, 界线 jiexian – chegara va 界限 jiexian – chegara, 震动 zhendong – chayqalish va 振动 zhendong – tebranish.

Shunday qilib, xitoy tili yozma iyeroglif formasida shunday sinonimlar uchraydiki, ularning tovush va tuzilish jixatlari mosdir.

Ba'zi bir xitoy tili o'quv qo'llanmalari yevropa lingvistik odatlariga binoan har xil tovushli so'zlarni sinonimlarga kiritishadi. Bunday yo'nalishda ular tilning yozma formasidagi bitta sinonimik qatorga kiruvchi to'liq omofonik so'zlarni hisobga olishmaydi.

Omofonik xitoy tili sinonim so'zlaridan tashqari, joylashish tartibi bilan farq qiladigan va bir xil komponentlardan tashkil topgan leksik sinonimik birliklar ham e'tiborga loyiq. Komponentlarning joylashish tartibi bu yerda sinonimik munosabatlarni anglatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Odatda bunday sinonimlar tushunish ma'nosida, emotsional rang – baranglikda, foydalanishda hech qanday farqga ega emas, masalan: 离别 libie - 别离 bieli “ayrilmoq”, 替代 tidai - 代替 daiti “o'rniga” (заменить), 阻拦 zulan - 拦阻 lanzu “ushlab turmoq”, “to'sqinlik qilmoq”, 刚才 gangcai - 才刚 caigang “hozirgina”, “endigina”, 直爽 zhishuang - 爽之 shuangzhi “to'g'ri”, “samimiy”, “ochiq ko'ngil”, 要紧 yaojin - 紧要 jinyao “muhim”, “ma'suliyatli”¹.

Tilning rivojlanish jarayonida umumiy komponentli sinonimlarning bir qismi foydalanish va ma'no jihatidan farqlanadi. Masalan, 动摇 dongyao va 摇动 yaodong sinonimik juftligi bilan shunday hodisa sodir bo'lgan. Ular konkret predmetning “tebranish”ini anglatadi va ular barcha kontekstlarda bir – birini o'rnida ishlatilishi mumkin bo'lgan. Hozirgi kunda faqat 摇动 yaodong shu ma'noni saqlab qolgan, 动摇 dongyao so'zi esa “o'zgaruvchan”, “doimiy emas” (siyosat, konsepsiya, qarorlar uchun).

Xitoy tili leksik sinonimlari orasida bitta umumiy formal komponentli birliklar ko'p tarqalgan. Ular bir xil tiplashgan ma'noga ega va ko'p xollar bir – birini o'rnida keladi.

Bunday so'zlarda umumiy komponent har xil tartibda joylashishi mumkin. Ba'zi bir sinonimik qatorlarda ular birinchi bo'lib kelishadi: 商量 shangliang – muhokama qilmoq, kelishmoq, maslaxatlashmoq ~ 商榷 shangque - muhokama qilmoq, kelishmoq, maslaxatlashmoq. Boshqa sinonimik qatorlarda umumiy komponent ikkinchi bo'lib kelishi mumkin: 长处 changchu – qadr – qimmat ~ 好处 haochu – afzallik, plyus, ortiqlik. Bir sinonimik qatorga tegishli so'zlarning umumiy komponentlari har xil tartibda joylashgan bo'lishi mumkin: 看重 kanzhong – qadrlamoq, hurmat qilmoq ~ 重视 zhongshi – qadrlamoq, katta e'tibor qaratmoq, 英勇 yingyong – mard ~ 勇取 yongqu – jasur.

¹ Семенов А. Л. «Лексикология современного китайского языка». М.: Наука, 1992. с. 60.

Kòrinib turibdiki, bunday soʻzlar soʻz yasalishidagi oʻzgarishlar bilan munosabatda boʻlmaydi, misol tariqasida quyidagi soʻzlarni misol qilib koʻrsatish mumkin: 手指 shouzhi - 手指头 shouzhitou “barmaq”, 数子 shuzi - 数目子 shumuzi “raqam”.

Semantik munosabatlar nuqtai nazaridan, bu aynan xitoy tilida uchraydigan tur hisoblanadi. Bitta umumiy komponentli soʻzlarni sinonim boʻlib kelishini aniqlash uchun ularning izohlarini taqqoslab chiqish lozim.

Sinonimlarga tegishli ikkita yoki undan koʻp soʻzlarning izohlarini taqqoslab chiqish natijasida, quyidagi uch holat kelib chiqdi: 1. izohlangan maʼnolar umumiy qismga ega; 2. izohlangan maʼnolar toʻliq mos keladi; 3. bitta soʻz sinonimlarga kiritilgan boshqa soʻzlarning maʼnosini izohlab keladi.

Yuqoridagi birinchi xolatda taqqoslanadigan birliklar kvazisinonimlarga tegishlidirlar, ikkinchi va uchinchi xolatdagilari esa aniq sinonimlarga tegishlidirlar. Quyida ularga tegishli misollarni koʻrib chiqamiz:

冷僻 lengpi soʻzi 2ta oʻzaro bogʻlangan maʼnoga ega: 1. xilvat (joy); 2. kam ishlatiladigan, kamdan – kam foydalaniladigan. Birinchi maʼnosida u 冷落 lengluo – xilvat soʻzi bilan sinonimik juftlikni tashkil etadi va bir – birini oʻrnida kela oladi, masalan: 这个地方十分冷僻（冷落）很少有人来。 Zhege difang shifen lengpi (lengluo) hen shao youren lai. “Bu joy juda xilvat, odamlar kamdan – kam xollarda kelishadi”. Lekin 冷僻的词语。Lengpide ciyu “Kam ishlatiladigan gaplar” jumlasida 冷僻 lengpi soʻzining ikkinchi maʼnosi berilgan, uni 冷落 lengluo soʻzi bilan almashtirib boʻlmaydi, uni 生僻 shengpi – kam foydalaniladigan soʻzi bilan almashtirish mumkin.

Sinonimlarga tegishli soʻzlar doimo ham kontekstlarda oʻz farqlarini betaraflashtira olmaydi. Masalan: 新鲜 xinxian – “yangi” va 新颖 xinying – “yangi”, “original”. Ularning smantik xususiyatida umumiy belgilari mavjud: “avval boʻlmagan”, “yangi”, “yaqinda paydo boʻlgan”. 新鲜 xinxian bunday maʼnoda quyidagi kontekstlarda qoʻllaniladi:

新鲜蔬菜 xinxian shucai – yangi sabzavotlar

新鲜牛奶 xinxian niunai – yangi sut

新鲜鸡蛋 xinxian jidan – yangi tухum

Lekin 新颖 xinying soʻzi mazkur kontekstda 新鲜 xinxian soʻzining oʻrnini bosa olmaydi, sababi uning maʼnosi aniq bir predmetning boshqalarga oʻxshamasligi, oddiyalaridan farqlanib turishini anglatadi. Shuning uchun u quyidagi kontekstlarda qoʻllanilishi mumkin: 这件衣服的式样很新颖。Zhejian yifude shiyang hen xinying “Bu kiyimning modellari juda yangi”, 这篇文章没有什么新颖独创之处。Zhepian wenzhang meiyou shenme xinying duchuang zhi chu “Bu maqolada hech qanday original mustaqil qarashlar yoʻq”.

Farqlanib turuvchi komponentlarning maʼnosi tahlil qilinsa, ifodalanayotgan harakatdagi asosiy omilni chuqur koʻrsatib bera oladi.

注视 zhushi “koʻz uzmay qarab turish”, “diqqat bilan kuzatish” va 凝视 ningshi “qarab turmoq”, “bor diqqat eʼtibori bilan qaramoq” feʼllarining birga qoʻshilib kelgan farqlarini koʻrib chiqamiz. Ular koʻrish qobiliyatini anglatuvchi umumiy maʼnoga ega.

Xitoy tili leksik sinonimlarini shakliy xususiyatiga koʻra bir nechta tiplarga boʻlish mumkin. Soʻzlardagi boʻgʻinlarning soni, shuningdek komponentlarning umumiy va farqliligini bor boʻlishi eʼtiborga olinadi. Xitoy lingvistlarining belgilashlaricha bir tarafdin umumiy komponentlarning mavjudligi va boʻgʻinli xususiyat oʻrtasida aniq tobelik mavjud, boshqa tarafdin esa semantik belgilarida².

² Семенов А. Л. «Лексикология современного китайского языка». М.: Наука, 1992. с. 56.

I. Birinchi tipga bir bo`g`inli so`zlar bilan ifodalangan sinonimlar, masalan: 法 fa – qonun - 律 lu – qonun, qoida, 定 ding – o`rnatmoq - 订 ding – aniqlamoq, 肥 fei – yog`li - 胖 pan – semiz, 关 guan – yopmoq - 闭 bi – yummoq, bekitmoq - 合 he – qattiq yopmoq, 看 kan - 见 jian – ko`rmoq - 望 wang – uzoqqa qaramoq - 瞭 liao – nazar tashlab qo`ymoq - 瞧 qiao – boqmoq, qaramoq - 瞰 kan – qaramoq, kuzatmoq, nazar solmoq.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, bir bo`g`inli so`z sinonimlarining soni xitoy tilida ko`p emas, ularning ko`pchiligi leksikaning asosiga tegishlidir va ko`p xollarda ko`p ma`noli hisoblanishadi.

II. Ikkinchi tur bir bo`g`inli va ikki bo`g`inli so`zlardan tashkil topgan. Ikkinchi turning o`zi ikkita kichik turga bo`linadi:

1. Umumiy komponentlarga ega bo`lmagan sinonimlar: 头 tou – bosh - 脑袋 naodai – bosh, 俊 jun – ajoyib - 好看 haokan – chiroyli, 吹 chui – maqtanmoq - 夸口 kuakou – maqtanmoq.

2. Bitta sinonim boshqa sinonimning komponentlariga mos keladi, bu komponentlar so`zning birinchi yoki ikkinchi qismida joylashgan bo`lishi mumkin: 静 jin – tinch - 寂静 jijin – sokin, 弯 wan – qiyshiq - 弯曲 wanqu – qiyshiq, egilgan, 飞 fei – uchmoq - 飞翔 feixiang – parvoz qilmoq.

Ikkinchi kichkina tur sinonimlari asosan ot so`z turkumiga oiddirlar: 河 he – daryo ~ 河流 heliu – daryolar, 池 – chi – xovuz ~ 池沼 chizhao – xovuz, 船 chuan – kema ~ 船只 chuanzhi – kemalar, 书 shu – kitob ~ 书架 shujia – kitoblar, adabiyotlar.

Mazkur sinonim suffikslarining xususiyati shundaki, ular bir xil predmetlarni anglatadi, chap kolonkadagi so`zlar predmetlarning birlik va ko`plikda anglatadi, o`ng kolonkadagi so`zlar esa faqat ko`plikni anglatadi. Masalan, 马 ma – ot so`zi kontekstga qarab bitta yoki ir nechta otlarni anglatishi mumkin, lekin 马匹 mapi – otlar so`zi esa ma`lum sondagi otlarni anglatadi.

III. Uchinchi turga ko`p bo`g`inli so`zlardan tashkil topgan sinonimlar kiradi (ikki va undan ortiq bo`g`inlilar). Ularning orasida har xil komponentli (lekin har xil tartibda joylashgan) va qisman mos komponentli sinonimlar ajralib turadi.

Har xil komponentli sinonimlar guruhini ko`rib chiqamiz.

Bu guruhning katta bo`lmagan qismi – o`xshash ma`noli so`zlar, ya`ni absolyut sinonimlardir. Aynan ular oxirgi yillarda normallashuv nuqtai nazaridan lingvistik analizga uchrayapti. Masalan: 诞辰 danchen – tug`ilgan kun ~ 生日 shengri – tug`ilgan kun, 玉米 yumi – makkajo`xori ~ 包谷 baogu – makkajo`xori, 星期日 xingqiri – yakshanba ~ 礼拜天 libaitian – yakshanba, 布拉机 bulaji – ko`ylak ~ 连衣裙 lianyiqun – ko`ylak, 西红柿 sihongshi – pomidor ~ 番茄 fanqie – pomidor.

Bu sinonimlarning xususiyati shundaki, ularni ko`plab kontekstlarda bir – birini o`rnida ishlatish mumkin, masalan: 日头 ritou – quyosh va 太阳 taiyang – quyosh. 太阳出来了 Taiyang chulaile – Quyosh chiqdi. 日头出来了 Ritou chulaile – Quyosh chiqdi. 日头落山 Ritou luoshanle – Quyosh botdi. 太阳落山 Taiyang luoshanle – Quyosh botdi. Lekin mazkur guruh sinonimlarida sintaksik va semantik uyg`unlashishning to`liq to`g`ri kelishi kam uchraydi. Har xil komponentli sinonimlar, ko`pincha to`liq bo`lmagan, aniq bo`lmagan sinonimlar hisoblanishadi yoki 近义词 “yaqin ma`noli so`zlar” bo`lishadi.

Har xil komponentli so`zlar sinonimlari haqida quyidagi misollar orqali tasavvurga ega bo`lish mumkin:

道路 daolu va 途径 tujing – “yo`l”. Birinchi sinonimning ma`nosi kengroq, ya`ni “yurish uchun mo`ljallangan joy”, “harakat sodir bo`ladigan joylar”(masalan, havo, dengiz yo`llari), “rivojlanish yo`nalishi”, “biror bir narsaga erishish yo`li, usuli” degan ma`nolarda keladi, 途径 tujing asosan abstrakt ma`noga ega, “biror bir narsaga erishish usuli, yo`li” degan ma`noda keladi, odatda kitobiy tilda foydalaniladi.

清晰 qingxi va 明白 mingbai sifatleri “aniq”, “tushunarli” degan bir xil ma’nodarga ega. 清晰的思路 qingxide silu – “fikrning aniq yo’nalishi” jumlasida 清晰 qingxi so’zi o’rniga 明白 mingbai so’zini qo’yib bo’lmaydi, 明白的道理 mingbaide daoli – “tushunarli qonun” jumlasida esa 明白 mingbai so’zining o’rniga 清晰 qingxi so’zini qo’yib bo’lmaydi.

Bu sinonimlar o’rtasidagi farq shundaki, ular aniq bir obyekt bilan uyg’unlashadilar va bu mazkur juftlikning asosiy farqidir.

Har xil komponentli sinonimlar stilistik bo’yoqlar, baxo xarakteristikasi xususiyatiga ega. Masalan, 马上 mashang va 立刻 like “xoziroq”, “shu xaxotiyuq”, “darxol” degan ma’nodarni beradi. Birinchi sinonim ko’pincha og’zaki nutqda ishlatiladi, ikkinchisi esa kitobiy tilda foydalaniladi. Bulardan tashqari, 马上 mashang so’zi og’zaki nutqda qo’shimchaga ega bo’lmagan bir bo’g’inli fe’llar bilan onsongina birikadi: 马上去 mashang qu – shu xaxotiyuq ketdi, 马上看 mashang kan – darxol qaradi, 马上写 mashang xie – darxol yozdi, 马上来 mashang lai – darxol keldi. 马上 mashang so’zining semantik hajmi 立刻 like so’ziga qaraganda katta, shuning uchun ular harakatning ketma – ketligi ifodalangan kontekstlarning bir qismidaina bir – birini o’rnida kelishi mumkin. Masalan: 回来, 他马上到连部要求调到步兵连去。 Huilai ta mashang dao lianbu yaoqiu tidao bubing lianqu. “Qaytib kelgach, u darxol rota boshqarmasiga yo’nalib piyoda askarlar ro’tasiga o’tkazishlarini so’radi”, 地下印刷所里的人听见铃声, 立刻停了机器。 Dixia yinshuasuo li de ren tingjian lingsheng, like tingle jiqi. “Yashirin bosmaxonadagi odamlar, qo’ng’iroq tovushini eshtishgach, mashinalarni darxol to’xtatishdi”.

马上 mashang so’zi gapirayotgan shaxsning fikri bo’yicha, tez orada biror bir hodisaning sodir bo’lishini ham bildiradi, masalan: “大娘, 您还不知道哇, 小王马上要办喜事啦!” daniang, nin hai bu zhidao wa, xiaowang mashang yao banxishi la – “Xolajon, siz xali ham kichkina Wangning yaqinda to’yi bo’lishini bilmayizmi!”, “看你, 马上就做爸爸了, 还这样孩子气。” kan ni, mashang jiu zuo baba le, hai zheyang haizi qi – “Senga qarasa, yaqinda ota bo’lasan, lekin xuddi yosh bolaga o’xshaysan”.

Mazkur kontekstlarda 马上 mashang so’zni o’rniga 立刻 like so’zini ishlatib bo’lmaydi.

Biroq ko’pgina xitoy sinonimlari qisman mos keladigan komponentli so’zlar bilan ko’rsatilgan. Xitoy lingvistlari ulaga alohida e’tior qaratishadi. Gap shundaki, to’liq yoki qisman mos keladigan so’zlarning hammasi ham sinonimik munosabatlar bilan bog’lanmagan³. Masalan komponentlari bir xil, lekin har xil tartibda joylashgan so’zlar sinonim bo’lmashliklari ham mumkin, masalan: 故事 gushi – “hikoya” va 事故 shigu “hodisa”, “avariya”, 实现 shixian – “amalga oshirmoq” va 现实 xianshi “haqiqat”. Oxirgi ikkita so’zda umumiy semantik belgilar mavjud bo’lsa ham, bu so’zlar har xil kategoriyaga tegishlidir va shuning uchun ularni sinonimlar deb hisoblab bo’lmaydi.

REFERENCES

1. 现代汉语. - 上海教育出版社, 2002 年.
2. Семенов А. Л. Лексикология китайского языка. - М., Муравей, 2000.
3. Семенов А. Л. Лексикология современного китайского языка. - М.: Наука, 1992.
4. 周祖谟。汉语词汇。- 北京, 1959 年。
5. 高庆赐。同义词和反义词。- 上海, 1957 年。
6. 王理嘉, 侯学超。怎么样确定同义词。语言学论丛. - 北京, 1963 年。

³ Семенов А. Л. «Лексикология китайского языка». М., Муравей, 2000.

7. 高庆赐。同义词和反义词。 - 上海, 1957 年.
8. С.А. Хашимова . ҲОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИ СИФАТЛАРДА КОНВЕРСИЯ ҲОДИСАСИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2020
9. Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2022.
10. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In *Resent Scientific Investigation* (pp. 69-73).
11. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с* (p. 361).
12. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
13. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
14. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
15. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
16. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
17. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
18. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
19. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
20. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
21. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
22. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
23. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. С. 187-188.
24. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ 3,384,2019